




2020- yilning yanvar-noyabr oylari uchun Navoiy viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Navoiy viloyatida jami **3 875,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **101,8 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni,
2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda**



2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1 551 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 130 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **105,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,7 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **129,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,0 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **110,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,3 %**) o'sishidir.



Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.12.2019- yil	01.12.2020- yil	
	Navoiy viloyati	1 421	1 551	109,1
	Navoiy sh.	400	431	107,7
	Zarafshon sh.	118	119	100,8
	<i>tumanlar:</i>			
	Karmana	223	252	113,0
	Konimex	29	39	134,5
	Qiziltepa	199	231	116,1
	Navbahor	160	188	117,5
	Nurota	107	98	91,6
	Tomdi	34	42	123,5
	Uchquduq	55	53	96,3
	Xatirchi	96	98	102,1


Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy sh. (27,8 %), Karmana (16,3 %) va Qiziltepa (14,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **799,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **75,1** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **7,5** punktga kamayib, **20,6** % ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **65,7 %** i yoki 2019- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **21,8 %** kamaygan), Navoiy shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,4 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **9,1 %** kamaygan), va Qiziltepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **14,7 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0,6 %** ko'paygan) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **54,2 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **7,5** punktga oshdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **118,6 %** ni tashkil etgan holda **2 099,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **25,2 %** ni tashkil etdi yoki **976,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **100,4 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **794,5** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 080,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **20,5 %** va **79,5 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





**2020- yilning yanvar-noyabr oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulki	
		mlrd. so'm	Ulushi, % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	3 875,2	794,5	100,0	3 080,7	100,0
Navoiy sh.	898,6	151,1	19,0	747,5	24,3
Zarafshon sh.	909,7	556,5	70,0	353,2	11,5
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	491,8	33,5	4,2	458,3	14,9
Konimex	65,1	3,3	0,4	61,8	2,0
Qiziltepa	560,1	4,2	0,5	555,9	18,0
Navbahor	284,1	2,7	0,4	281,4	9,1
Nurota	182,9	1,6	0,2	181,3	5,9
Tomdi	28,1	5,8	0,8	22,4	0,7
Uchquduq	49,4	8,8	1,1	40,6	1,3
Xatirchi	405,4	27,0	3,4	378,3	12,3

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-noyabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 68,6 % i yoki **2 660,2** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

68,6 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **677,9** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 25,5 % ni tashkil etdi

25,5 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1159,2** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 43,6 % ni tashkil etdi.

43,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **823,1** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 30,9 % ni tashkil etdi.

30,9 %




**2020- yilning yanvar-noyabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Navoiy viloyati	3 875,2	101,8	2 660,2
Navoiy sh.	898,6	101,8	795,1
Zarafshon sh.	909,7	100,7	707,9
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	491,8	101,1	247,1
Konimex	65,1	108,7	21,3
Qiziltepa	560,1	102,1	222,2
Navbahor	284,1	102,8	139,7
Nurota	182,9	102,4	124,5
Tomdi	28,1	100,3	46,9
Uchquduq	49,4	103,6	56,3
Xatirchi	405,4	102,6	299,2

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **19,1 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,8** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,9** punktga kamayib, **47,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,8** punktga ko'payib, **33,1 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **27,0 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **14,6 %** kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **73,0 %** (**14,6 %** ko'payish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **22,3 %** kamaydi va **38,1 %** ni tashkil etdi. Qolgan **61,9 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **22,3 %** ko'paydi.

ulushi, % da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-noyabr oylarida**

mlrd. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
Navoiy viloyati	3 875,2	2 948,9	507,8	418,5
Navoiy sh.	8 98,6	719,1	71,3	108,2
Zarafshon sh.	909,7	653,5	133,5	122,7
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	491,8	374,8	71,3	45,7
Konimex	65,1	45,5	14,1	5,5
Qiziltepa	560,1	395,4	93,7	71,0
Navbahor	284,1	245,4	19,1	19,6
Nurota	182,9	160,4	7,2	15,3
Tomdi	28,1	7,7	10,3	10,1
Uchquduq	49,4	29,1	12,9	7,4
Xatirchi	405,4	318,0	74,4	13,0

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da



- Navoiy sh.
- Karmana t.
- Qiziltepa t.
- Nurota t.
- Uchquduq t.
- Zarafshon sh.
- Konimex t.
- Navbahor t.
- Tomdi t.
- Xatirchi t.


Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Nurota tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 87,7 % i yoki **160,4** mlrd. so'm), shuningdek, Navbahor tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 86,4 % i yoki **245,4** mlrd. so'm), Navoiy shahri (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 80,0 % i yoki **719,1** mlrd. so'm), yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 36,9 % i yoki **10,4** mlrd. so'm), Uchquduq tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 26,1 % i yoki **12,9** mlrd. so'm), Konimex tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 21,6 % yoki **14,1** mlrd. so'm) da qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi,
jamiga nisbati, % da**



**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,
jamiga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 35,9 % i yoki **10,1** mlrd. so'm), Uchquduq tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 14,9 % i yoki **7,4** mlrd. so'm), Zarafshon shahri (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 13,5 % i yoki **122,7** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'mda

Zarafshon sh.
909,7



Navoiy sh.
898,6



Qiziltepa t.
560,1



Karmana t.
491,8



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Zarafshon shahri (909,7 mlrd. so'm), Navoiy shahri (898,6 mlrd. so'm), Qiziltepa (560,1 mlrd. so'm), Karmana (491,8 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 202-84-46; (79) 223-54-73